



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukarimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILYI KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta'minot servis” AJ misolida).....	160
Doniyorova M. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi SUN'Y INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODEL (EVC1)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова Жамолiddин Ярашевич Нуриллаев THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich Alimova Guzal Abdukhakimovna BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODEL.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuvatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
Nurmatov Samandar G'ayratovich	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI	238
Bau Long	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	244
Axrarova Shodiyxon Ja'farxon kizi	
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI	247
Djurayev Davlat Djonibekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI	250
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	256
Payziyev Hamid Orziqulovich	
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	260
A.A. Ismailov	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI	266
Elmurodov Shohzod Shavkatovich	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA.....	272
A.A. Ismailov	
ETNOGRAFIK RESURSLARDAN FOYDALANISHNING STRATEGIK BOSHQARUV TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	278
Axmedov Ikrom Akramovich	
O'ZBEKISTON TASHKILOTLARIDA UCHRAYDIGAN BOSHQARUV MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI	285
Abiyev Jahongir Ne'matovich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODEL VA ILMIY YONDASHUVLARI.....	290
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	



O'ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQAMLI SALOHİYATINI BAHOLASH: RSI INDEKSI ASOSIDA ILMIY TAHLIL.....	294
Odinayev Nuriddin Ramozon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	300
Hakimov Ikrom Izzatillo o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA STRATEGIK ISLOHOTLARNING AHAMIYATI.....	305
Amanov Akram Mirzayevich	
FOND BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI INVESTITSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	310
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'ZBEKISTONDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH JARAYONINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI TAHLILI.....	316
Atakulov Askad Raimkulovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	322
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ «ЗЕЛЕННЫХ» ТЕХНОЛОГИЙ В ЖИЛИЩНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	326
Tojievа Dильфуза Бобомуратовна	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOYIY TARMOQLAR MARKETINGIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	334
Baltabayev Hurrambek To'liqinovich	
METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI.....	341
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA SANOAT TARMOG'INING ROLINI STATISTIK O'RGANISH.....	354
To'rayeva Zilola Turg'unovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA BANKLAR: BIZNES TAHLILI VA STRATEGIK USTUNLIK MEXANIZMLARI.....	361
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Ibragimova Iroda Rashid qizi	
To'lovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
QQS, FOYDA VA DAROMAD SOLIG'I STAVKALARINING BARQARORLIGI.....	367
Aripova Aziza Alisherovna	
YER VA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	372
Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRASION MODEL VA BAHOLASH INDIKATORLARI.....	378
Yuldashev Shuxrat Ganiyevich	
O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARI ORASIDA EKO-MARKETING TO'SIQLARI.....	383
Gulsara Ostonaqulova	
Erkinova Shoxista Bekzod qizi	
YAXSHI KORPORATIV BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	394
Urinov Bobur Nasilloevich	
O'ZBEKISTONDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	399
Qutlimurotov Fayzullo Sa'dulayevich	



VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida).....	406
Avazova Nafisa Namazovna O'ZBEKISTONDA SERVIS IQTISODIYOTI: XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA TENDENSIYALARI	410
Sattarova Nargiz Toxirovna HUDUDIIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA GASTRONOMIK TURIZMNING AHAMIYATI.....	414
Nurullayeva Malika Samadjon qizi ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ УКАЗАНИЯ КАК МАРКЕТИНГОВАЯ СТРАТЕГИЯ ПРОДВИЖЕНИЯ ТУРИСТСКИХ ДЕСТИНАЦИЙ (НА ПРИМЕРЕ «ЗАГАРА-НОН»).....	420
Сапарбаева Мавлюда Толыбаевна AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYASINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH.....	427
Kurashev Sobir Saidmurod o'g'li GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI.....	433
Shavqiyev Erkin Danayeva Zulhumor Abdusodiq qizi РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	439
Абдурахимова Дилора Каримовна QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHDA BRENDING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	446
Uzakova Umida Ruziyevna SOLIQ YUKINING IQTISODIY MOHIYATI, UNI BAHOLASH VA OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI	452
Jasmina Baxtiyorova AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA ESG TAMOYILLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI	458
Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich	



UDK 658.114:330.342.1:005.35 AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA ESG TAMOYILLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Innovatsion menejment kafedrasida assistent
E-mail: d.xabibullayev@tsue.uz
ORCID: 0009-0003-0507-4340

Annotatsiya. Korporativ menejment tizimida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining konseptual asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida ESG yondashuvining nazariy manbalari, uning korporativ boshqaruv tizimidagi o'рни hamda boshqaruv samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Olingan natijalar ESG tamoyillarini amaliyotga joriy etish kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, risklarni kamaytirish va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ESG, korporativ menejment, barqaror rivojlanish, steykholderlar nazariyasi, shaffoflik, boshqaruv samaradorligi.

Аннотация. Исследованы концептуальные основы принципов ESG (Environmental, Social, Governance) в системе корпоративного менеджмента. В рамках исследования проанализированы теоретические основы ESG-подхода, его роль в системе корпоративного управления, а также влияние на эффективность управления. Полученные результаты свидетельствуют о том, что внедрение принципов ESG способствует обеспечению устойчивого развития компаний, снижению рисков и повышению их инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: ESG, корпоративный менеджмент, устойчивое развитие, теория стейкхолдеров, прозрачность, эффективность управления.

Abstract. The conceptual foundations of ESG (Environmental, Social, Governance) principles within the corporate management system are examined. The study analyzes the theoretical background of the ESG approach, its role in corporate governance, and its impact on management efficiency. The findings indicate that the implementation of ESG principles contributes to sustainable corporate development, risk mitigation, and the enhancement of investment attractiveness.

Keywords: ESG, corporate management, sustainable development, stakeholder theory, transparency, management efficiency.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korporativ menejment tizimi faqat moliyaviy natijalarga emas, balki ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillariga ham bog'liq holda rivojlanmoqda. Global investitsiya oqimlarining o'zgarishi, iqlim muammolari va ijtimoiy mas'uliyatning ortib borishi ESG tamoyillarini korporativ strategiyaning ajralmas qismiga aylantirdi.

ESG konsepsiyasi kompaniyalarning uzoq muddatli qiymat yaratish qobiliyatini baholashda muhim indikator sifatida qaraladi. Shu bois, uning konseptual asoslarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – ESG tamoyillarining korporativ menejment tizimidagi nazariy asoslarini tahlil qilish va ularning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish, ularni xalqaro kapital bozorlariga olib chiqish (IPO/SPO) va korporativ boshqaruvning zamonaviy standartlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, milliy aksiyadorlik jamiyatlarida ESG menejmentining konseptual asoslarini shakllantirish, ushbu tamoyillarning korporativ strategiya bilan o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslash



va ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari hali ham mukammal darajaga yetmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-nazariy va uslubiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirib, mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlarida ESG (Environmental, Social, Governance) omillarining boshqaruv samaradorligiga ta'siri so'nggi yillarda iqtisodiy va moliyaviy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. ESG konsepsiyasi dastlab korporativ ijtimoiy mas'uliyat doirasida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda u kompaniya qiymatini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda boshqaruv sifatini takomillashtirishning muhim strategik vositasi sifatida qaralmoqda.

Klassik korporativ boshqaruv modelining asoschilaridan biri, Nobel mukofoti sovrindori Milton Fridman o'zining fundamental asarlarida kompaniyaning yagona ijtimoiy mas'uliyati qonun doirasida faoliyat yuritgan holda aksiyadorlar uchun foydani maksimallashtirishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi [1]. M. Fridman yondashuviga ko'ra, menejerlar tomonidan ijtimoiy yoki ekologik loyihalarga mablag' yo'naltirilishi aksiyadorlar mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, ya'ni agentlik muammosining namoyon bo'lishi sifatida baholangan. Ushbu yondashuv keyinchalik Maykl Jenson va Uilyam Mekling tomonidan rivojlantirilib, korporativ boshqaruvning asosiy vazifasi aksiyadorlar hamda top-menejment o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini ta'minlashdan iborat ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [2].

Biroq XX asrning oxirlariga kelib, ekologik muammolar, ijtimoiy tengsizliklar hamda yirik korporativ mojarolar fonida mazkur yondashuvning cheklangan jihatlari namoyon bo'la boshladi. Shu sababli korporativ boshqaruvning muqobil nazariyalari shakllandi. Xususan, Robert Edvard Friman o'zining "Strategic Management: A Stakeholder Approach" asarida korporativ boshqaruv subyektlari nafaqat aksiyadorlar, balki korxonalar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki undan manfaatdor bo'lgan barcha tomonlar — xodimlar, iste'molchilar, yetkazib beruvchilar, mahalliy hamjamiyat va davlat organlari manfaatlarini ham inobatga olishi zarurligini asoslab berdi [3]. Frimanning manfaatdor tomonlar nazariyasi bugungi kunda ESG konsepsiyasining eng muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Menejment tizimida ESG mezonlarining mustaqil va o'zaro bog'liq elementlar sifatida shakllanishi Jon Elkington tomonidan ilgari surilgan "Triple Bottom Line" konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, korporativ faoliyat samaradorligi uchta asosiy yo'nalish — iqtisodiy natijalar (Profit), ijtimoiy mas'uliyat (People) va ekologik barqarorlik (Planet) bo'yicha baholanishi lozim [4]. Elkington korporatsiyalar faoliyatini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik indikatorlarni ham teng ahamiyatga ega mezonlar sifatida qo'llash zarurligini asoslab berdi.

ESG atamasi xalqaro iqtisodiy muomalaga 2004-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global shartnomasi doirasida tayyorlangan "Who Cares Wins" nomli hisobot orqali rasman kiritilgan. Mazkur hujjatda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini investitsion tahlil hamda korporativ boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish kapital bozorlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi ta'kidlangan [5].

O'tish iqtisodiyoti va rivojlanayotgan bozorlar sharoitida korporativ boshqaruvni transformatsiya qilish hamda ESG mezonlarini milliy amaliyotga joriy etish masalalari mamlakatimiz olimlari tomonidan ham tadqiq etilmoqda. Jumladan, Z. Ashurov, F. Djalilov va B. Urinovlar korporativ boshqaruv tizimining transformatsiyalashuvi va uning strategik samaradorligiga bag'ishlangan tadqiqotlarida rivojlanayotgan bozorlarda boshqaruv komponenti (Governance) ekologik va ijtimoiy komponentlarga nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etishini asoslab berishgan. Ularning fikricha, samarali korporativ boshqaruv tizimi mavjud bo'lmagan sharoitda ekologik va ijtimoiy strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati cheklanadi [6].

Ilmiy adabiyotlarda ESG indikatorlarini vizuallashtirish va qiyosiy tahlil qilishda radar diagramma (Radar Chart yoki Spider Chart) samarali analitik vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu usul dastlab strategik menejment va tashkilot faoliyati samaradorligini baholash tadqiqotlarida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik barqaror rivojlanish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat hamda ESG tadqiqotlarida ham keng tarqaldi. Radar diagramma bir vaqtning o'zida bir nechta ko'rsatkichlarni yagona koordinata tizimida aks ettirish imkonini berib, tashkilotlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kaplan va Norton tomonidan ishlab chiqilgan Balanced Scorecard konsepsiyasida ham tashkilot faoliyatini bir nechta strategik mezonlar asosida baholash zarurligi ta'kidlangan. Keyingi tadqiqotlarda radar diagrammalar korxonalar faoliyatidagi muvozanatni baholash, rivojlanish profilini aniqlash hamda ESG ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilishning samarali vositasi sifatida qo'llanila boshlandi [7].

Shu bilan birga, mahalliy aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv tizimiga ESG mezonlarini tizimli ravishda integratsiya qilish, moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlarni xalqaro GRI (Global Reporting Initiative) standartlari asosida shakllantirish hamda yashil iqtisodiyot talablariga moslashtirish masalalari hali yetarli darajada o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda asosan korporativ boshqaruvning huquqiy va tashkiliy jihatlari e'tibor



qaratilib, ESG tamoyillarining boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi, ularning boshqaruv samaradorligiga ta'siri hamda amaliy joriy etish mexanizmlari kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimida ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillarining konseptual asoslarini o'rganish hamda ularning iqtisodiy samaradorlik va uzoq muddatli barqarorlikka ta'sirini baholash yaxlit metodologik yondashuvga tayanishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining joriy etilish darajasini baholash va ular o'rtasidagi muvozanatni aniqlash maqsadida radar diagramma (Radar Chart yoki Spider Chart) metodologiyasidan foydalanildi. Ushbu metod ko'p mezonli baholash usullaridan biri bo'lib, korxonalarining ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ko'rsatkichlarini bir vaqtning o'zida vizual hamda matematik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning nazariy asosini resurslarga asoslangan yondashuv (Resource-Based View – RBV) hamda tizimli yondashuv nazariyasi tashkil etadi. Resurslarga asoslangan yondashuvga ko'ra, korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligi nafaqat moliyaviy resurslar, balki ekologik, ijtimoiy va boshqaruv salohiyatining uyg'un rivojlanishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, ESG komponentlari korxonaning strategik resurslari sifatida qaraladi. Tizimli yondashuv nazariyasiga ko'ra esa, tashkilotning umumiy samaradorligi eng kuchli emas, balki eng zaif bo'g'in bilan belgilanadi. Radar diagramma aynan korporativ boshqaruv tizimidagi bunday nomutanosibliklarni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonning yirik aksiyadorlik jamiyatlari tanlab olindi. ESG ko'rsatkichlarini baholash uchun oltita mezon shakllantirildi: E1 – emissiya va CO₂ boshqaruvi, E2 – energiya samaradorligi, S1 – mehnat xavfsizligi, S2 – ijtimoiy investitsiyalar, G1 – korporativ shaffoflik va G2 – kuzatuv kengashidagi mustaqil a'zolar ulushi. Har bir ko'rsatkich ekspert baholash usuli asosida 1 dan 5 gacha bo'lgan ballar orqali baholandi.

Radar diagrammani qurishda har bir mezon markazdan chiquvchi alohida o'q sifatida joylashtirildi. O'qlar orasidagi burchak mezonlar soniga bog'liq holda quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\alpha = \frac{360^\circ}{n}$$

Bu yerda:

α – o'qlar orasidagi burchak;

n – mezonlar soni.

Mazkur tadqiqotda $n=6$ bo'lgani sababli o'qlar orasidagi burchak:

$$\alpha = \frac{360^\circ}{6} = 60^\circ$$

ga teng bo'ldi.

Radar diagramma nafaqat vizual tahlil vositasi, balki korxonalarining integrallashgan ESG salohiyatini baholovchi matematik model sifatida ham qo'llanildi. Buning uchun radar diagramma ichida hosil bo'lgan ko'pburchakning yuzasi hisoblandi. Ko'pburchak yuzasi ESG komponentlarining umumiy rivojlanish darajasini aks ettiruvchi integral indeks (S-Index) sifatida talqin qilindi. Hisoblash quyidagi trigonometrik formula asosida amalga oshirildi:

$$S_{jami} = \frac{1}{2} \sin(\alpha) \sum_{i=1}^n (V_i \times V_{i+1})$$

bu yerda:

- S_{jami} – radar diagramma maydoni;
- V_i – i-chi mezon qiymati;
- V_{i+1} – keyingi mezon qiymati;
- α – o'qlar orasidagi burchak.

Mazkur yondashuv natijasida korxonalarining ESG bo'yicha umumiy salohiyatini yagona integral ko'rsatkich orqali baholash imkoniyati yaratildi. S-Index qiymatining yuqori bo'lishi korxonada ESG komponentlari rivojlangan va o'zaro muvozanatlashganligini anglatadi. Aksincha, indeksning past bo'lishi ekologik, ijtimoiy yoki boshqaruv yo'nalishlarida muammolar mavjudligini ko'rsatadi.



Radar diagramma metodologiyasining afzalligi shundaki, u bir vaqtning o'zida korxonalar o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazish, ESG komponentlari o'rtasidagi muvozanat darajasini aniqlash hamda korporativ boshqaruv tizimidagi kuchli va zaif tomonlarni vizual ravishda namoyon etish imkonini beradi. Shu sababli mazkur usul ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv tizimi samaradorligiga ta'sirini baholashda muhim analitik instrument sifatida tanlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'plab ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, ESG atamasi 2000-yillarning boshlarida keng qo'llanila boshlagan. Biroq ushbu konsepsiyaning shakllanishi undan ancha oldin boshlangan bo'lib, u turli manfaatdor tomonlar — olimlar, investorlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar tomonidan uzoq yillar davomida muhokama qilib kelingan. Ayniqsa, 1960–1970-yillarda paydo bo'lgan ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar (SRI — Socially Responsible Investing) konsepsiyasi ESG rivojlanishining muhim bosqichi bo'ldi. Ushbu yondashuv investitsiya qarorlarini qabul qilishda faqat iqtisodiy foydani emas, balki ijtimoiy va ekologik omillarni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Dastlab investorlar asosan atrof-muhitni muhofaza qilish, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy tenglik masalalariga e'tibor qaratgan bo'lsalar, vaqt o'tishi bilan bu yondashuv kengayib, korporativ boshqaruv sifatini ham o'z ichiga oldi. Natijada bugungi kunda ESG tushunchasi ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini yagona integratsiyalashgan tizim sifatida baholash imkonini beruvchi konsepsiyaga aylandi.¹

Mamlakatimizda korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish doirasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini integratsiya qilish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Biroq milliy korporativ sektorda ushbu tamoyillarning joriy etilish darajasi tarmoqlar kesimida va aksiyadorlik kapitalining tarkibiga ko'ra sezilarli darajada farqlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy aksiyadorlik jamiyatlarida ESG tamoyillarini joriy etish jarayoni hali institutsional transformatsiya bosqichida hisoblanadi. Ayniqsa, Governance komponenti boshqa komponentlarga nisbatan rivojlangan bo'lsa-da, ekologik va ijtimoiy yo'nalishlarda xalqaro standartlarga to'liq moslashuv kuzatilmaydi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning yirik aksiyadorlik jamiyatlarida ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining joriy etilish darajasini baholash maqsadida radar diagramma metodologiyasi va integral maydon yondashuvi (S-Index) qo'llanildi. Tahlil uchun NKMK, OKMK, O'zbekneftgaz, O'zmetkombinat, O'zkimyosanoat, UzAuto Motors, Hududiy elektr tarmoqlari, Issiqlik elektr stansiyalari, O'zbekko'mir hamda O'ztransgaz aksiyadorlik jamiyatlari tanlab olindi. Baholash ekologik (E1, E2), ijtimoiy (S1, S2) va korporativ boshqaruv (G1, G2) komponentlarini qamrab oluvchi oltita mezon asosida amalga oshirildi.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, ESG ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori integral salohiyat NKMKda qayd etildi. Korxonaning radar diagrammasi deyarli muntazam olti burchak shakliga ega bo'lib, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv komponentlari o'rtasida muvozanat mavjudligini ko'rsatadi (1-rasm).

Ushbu rasmda 10 ta yirik korxonada 6 ta asosiy ESG mezon bo'yicha 0 dan 5 ballgacha bo'lgan shkala asosida baholangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, NKMK radar maydonining eng katta qismiga ega bo'lib, ESG komponentlari bo'yicha eng yuqori va muvozanatli natijalarni namoyish etmoqda. OKMK va O'zmetkombinat korxonalarida ham ESG ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lib, hosil bo'lgan geometrik shakl muntazam olti burchakka yaqinlashadi. Bu holat ESG komponentlari o'rtasida muvozanat mavjudligini hamda korporativ boshqaruv tizimi barqaror rivojlanayotganligini anglatadi.

UzAuto Motors va O'zbekneftgaz korxonalarida ekologik hamda boshqaruv komponentlari bo'yicha o'rta darajadagi natijalar qayd etilgan. Radar shaklining ayrim yo'nalishlarda qisqarishi ESG siyosatining barcha elementlari bir xil sur'atlarda rivojlanmayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, mustaqil direktorlar ulushi va ekologik samaradorlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish zarurati mavjud.


Diagrammaning eng kichik maydoni O'zbekko'mir korxonasiga tegishli bo'lib, bu ekologik va boshqaruv indikatorlarining nisbatan pastligi bilan izohlanadi. Tizimli yondashuv nazariyasiga ko'ra, aynan ushbu zaif komponentlar korxonaning umumiy ESG salohiyatini cheklab turuvchi omillar hisoblanadi. Radar diagrammadagi qisqargan segmentlar korporativ boshqaruv tizimida modernizatsiya va institutsional islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

¹ **Djalilov F.** ESG tamoyillarini joriy qilish orqali korporatsiyalarning barqaror rivojlanishdagi rolini oshirish // *Journal of Education, Ethics and Value.* – 2023. – Vol. 2, No. 8. – ISSN 2181-4392.




Milliy aksiyadorlik jamiyatlarida ESG ko'rsatkichlari bo'yicha radar diagramma

(E1, E2, S1, S2, G1, G2 mezonlar bo'yicha baholash; shkalasi 0-5 ball)



1-rasm: Milliy aksiyadorlik jamiyatlarida ESG ko'rsatkichlari bo'yicha radar diagramma tahlili²

Radar diagramma natijalarini matematik jihatdan baholash maqsadida integral maydon usulidan foydalanildi. Korxonalarning umumiy ESG salohiyati S-Index asosida hisoblandi (2-rasm).



2-rasm: Korxonalarning integral ESG salohiyati (S-Index) reytingi³

2 Radar diagramma asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

3 Muallif ishlanmasi



S-Index qiymatining 56,72 ga tengligi NKMKning ESG tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo'yicha yetakchi korxonalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, energiya samaradorligi, mehnat xavfsizligi, ijtimoiy investitsiyalar va korporativ shaffoflik ko'rsatkichlarining maksimal darajaga yaqinligi korxonalar boshqaruv tizimida barqaror rivojlanish tamoyillari shakllanib borayotganligini anglatadi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi OKMK va O'zmetkombinat korxonalarida S-Index qiymati 45,03 ni tashkil etdi. Ushbu korxonalarining radar profilari ham nisbatan muvozanatli bo'lib, ESG komponentlari o'rtasida katta tafovutlar kuzatilmadi. Biroq NKMK bilan solishtirilganda, ekologik samaradorlik va korporativ boshqaruvning ayrim indikatorlari bo'yicha pastroq natijalar qayd etilgan. Bu esa mazkur korxonalarda ESG strategiyasini yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

UzAuto Motors va O'zbekneftgaz o'rta darajadagi ESG natijalarini namoyish etdi. Mos ravishda 38,11 va 35,07 qiymatlarni tashkil etgan integral indekslar ushbu korxonalarda ESG tizimi shakllanayotganini, biroq ayrim yo'nalishlarda rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. O'zbekneftgaz misolida ekologik komponentlar, xususan, emissiya va karbon izini qisqartirish bo'yicha ko'rsatkichlar boshqa indikatorlarga nisbatan pastroq baholangan. Bu holat energetika va uglevododrodlar sektorida faoliyat yurituvchi korxonalarda ESG transformatsiyasi ko'proq ekologik modernizatsiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Hududiy elektr tarmoqlari, O'zkiymosanoat va O'ztransgaz korxonalarida ESG komponentlari bo'yicha nisbatan nomutanosib rivojlanish kuzatiladi. Ushbu korxonalarining radar diagrammalarida ayrim o'qlar bo'yicha qisqarishlar mavjud bo'lib, bu holat ESG tizimining barcha elementlari bir xil darajada shakllanmaganligini anglatadi. Tizimli yondashuv nazariyasiga ko'ra, aynan ushbu zaif bo'g'inlar korxonalarining umumiy barqarorlik darajasini cheklab turuvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Eng past natijalar Issiqlik elektr stansiyalari va O'zbekko'mir korxonalarida qayd etildi. O'zbekko'mirning S-Index ko'rsatkichi 14,29 ga teng bo'lib, bu tanlanma ichidagi eng past natija hisoblanadi. Radar diagrammada ekologik va korporativ boshqaruv komponentlari bo'yicha shaklning keskin qisqarishi kuzatiladi. Mazkur holat korxonaning ESG transformatsiyasi bo'yicha institutsional islohotlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, emissiyalarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, korporativ shaffoflikni kuchaytirish va kuzatuv kengashidagi mustaqil direktorlar ulushini ko'paytirish ustuvor vazifalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Radar diagramma tahlili ESG komponentlari o'rtasidagi muvozanat darajasini ham baholash imkonini berdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yuqori S-Index qiymatiga ega korxonalarda geometrik shakl muntazam ko'pburchakka yaqinlashadi. Bu ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillari o'rtasida strategik uyg'unlik mavjudligini anglatadi. Aksincha, past indeksga ega korxonalarda radar shaklining ayrim yo'nalishlarda qisqarishi ESG tizimidagi nomutanosibliklarni aks ettiradi. Mazkur holat resurslarga asoslangan yondashuv nazariyasining amaliy tasdig'i bo'lib, korxonalar raqobatbardoshligi alohida bir kuchli komponent bilan emas, balki barcha strategik resurslarning uyg'un rivojlanishi bilan belgilanishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan natijalar O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida ESG tamoyillarining joriy etilish darajasi korxonalar kesimida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Tog'-kon va metallurgiya tarmog'idagi korxonalar nisbatan yuqori natijalarga ega bo'lsa, energetika va qazib chiqarish tarmoqlarida ESG ko'rsatkichlarining pastroq ekanligi aniqlandi. Bu holat ESG standartlarini joriy etish darajasi korxonaning institutsional rivojlanishi, korporativ boshqaruv sifati hamda xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuv darajasi bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv tizimidagi ahamiyati tobora ortib borayotganligini ko'rsatdi. ESG komponentlari o'rtasidagi muvozanatning ta'minlanishi korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, korporativ boshqaruv sifati yaxshilash va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli milliy aksiyadorlik jamiyatlarida ESG standartlarini joriy etishni chuqurlashtirish, nomoliyaviy hisobotlarni takomillashtirish hamda korporativ boshqaruv mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Friedman, M. The Social Responsibility of Business is to Increase its Profits // The New York Times Magazine. – 1970. – September 13.
2. Jensen, M.C., Meckling, W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3. – No. 4. – P. 305–360.
3. Freeman, R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. – Boston: Pitman, 1984.



4. Elkington, J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. – Oxford: Capstone Publishing, 1997.
5. United Nations Global Compact. Who Cares Wins: Connecting Financial Markets to a Changing World. – New York: UN Global Compact Office, 2004.
6. Ashurov Z.A., Djalilov F.A., Urinov B.N. Zamonaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba): o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 245 b.
7. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Measures That Drive Performance // Harvard Business Review. – 1992. – Vol. 70. – No. 1. – P. 71–79.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>